

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

OMONOVA MAFTUNA SHERMATOVNA

**TALABALARDA XORIJIY TIL KOMPETENTSIYASINI INTEGRATIV
YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI
(nofilologik ta'lim yo'nalishi misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini
olish uchun yozilgan dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Omonova Maftuna Shermatovna

Talabalarda xorijiy til kompetentsiyasini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi (nofilologik ta'lim yo'nalishi misolida) 3

Омонова Мафтуна Шерматовна

Методика развития иноязычной компетенции студентов на основе интегративного подхода (на примере нефилологического образования) 25

Omonova Maftuna Shermatovna

Methodology for developing foreign language competence of students based on an integrative approach (based on the example of non-philological education) 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

OMONOVA MAFTUNA SHERMATOVNA

**TALABALARDA XORIJIY TIL KOMPETENTSIYASINI INTEGRATIV
YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI
(nofilologik ta'lim yo'nalishi misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini
olish uchun yozilgan dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2024.3.Phd/Ped8257 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.namsifl.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Botirova Shaxlo Isamiddinovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jumanazarov Umidjon Umrzoqovich
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Ruzmetova Dildora Adilbekovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent


Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat chet tillari instituti huzuridagi PhD.03/05 05.2023 Fil.163.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil "12" 12 soat 15.00 daqi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani, "Yangiobod" MFY, Saodat ko'chasi, 28. Tel.: +99869-442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz / namdchti@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat chet tillari instituti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (17 raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani, "Yangiobod" MFY, Saodat ko'chasi, 28-uy Tel.: +998(69)442-11-67)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "5" 12 kuni tarqatildi
(2024-yil "17" 12 daqi 17 raqamli reestr bayonnomasi).



Z.Ya.Sadikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori (DSc),
professor

A.V.Ermirzayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kоти, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

S.A.Misirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda xalqaro globallashuv va keyinchalik milliy chegaralarning yemirilishi tufayli butun dunyo mamlakatlari xalqaro birdamlik va taraqqiyotni rivojlantirish orqali o'zlarining iqtisodiy, siyosiy, savdo va ijtimoiy aloqalarini kuchaytirishga intilishdi. Shu nuqtai nazardan, xorijiy til sifatida ingliz tili zamonaviy jamiyatning til va madaniyatlararo muloqotda asosiy element sifatida paydo bo'lib, savdo va axborot almashish tili bo'lib xizmat qilmoqda. Ingliz tilini ravon gapirishga bo'lgan talabning ortishi mahalliy va global miqyosda samarali muloqot qila oladigan malakali kadrlar va mutaxassislarni tayyorlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. AQSH va Ispaniyada til o'rganishning fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) ta'limiga integratsiyalashuvi, o'quv dasturlari va pedagogik jarayonda amaliyotlarni madaniyatlararo tahlil qilish vositasida nofilologik ta'lim yo'nalishlarda xorijiy til kompetensiyasini rivojlantirishga hissa qo'shadigan umumiy muammolar va innovatsion usullarning qo'llanilishiga oid tadqiqotlar olib borilgan.

Dunyoda xorijiy davlatlarning ta'lim tizimi amaliyotida 1970-yillardan boshlab xorijiy tillarni o'qitish amaliyoti va nazariyalari rivojlana boshladi, shuningdek, til ta'limida integrativ yondashuv bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar tahlilida, dastlab ingliz tilida so'zlashadigan asosiy davlatlardan tashqari, Janubiy Amerika, Xitoy, Germaniya, Gonkong va boshqa davlatlarda ESP (*English for specific purposes*) maxsus maqsadlar uchun ingliz tilini o'qitish va til kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Olimlar tomonidan talabalarning til ko'nikmalarini rivojlantirishda turli ta'lim dasturlari, ingliz tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish, onlayn resurslar va kompyuter ilovalari samaradorligini, shuningdek, ularning xorijiy til ta'limi jarayonida olingan bilimlari, motivatsiyasi, nofilologik ta'lim yo'nalishida talabalarning xorijiy til ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, xorijiy til kompetentligini baholash usullarini o'rganish, o'quv rejasi va dasturlarini zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish, xorijiy til ta'limini rivojlantirishdagi ahamiyatini o'rganish, ta'lim tizimini rivojlantirish sohasidagi tadqiqotlar katta ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizning global jarayonda dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi xorijiy tillarda kommunikativ kompetensiyaga ega malakali kadrlarni tayyorlashni muhim vazifalardan biriga aylantirdi. Bugungi kunda chet tilida asosiy muloqot ko'nikmalarini egallash zarurati, bir tomondan dolzarb muammolardan biri hisoblansa, ikkinchi tomondan, nofilologik ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladigan ingliz tili uchun oz miqdordagi dars soatlari bilan cheklangan. Bunday muammoli vaziyatlarda xorijiy til o'qituvchilari uchun oliy ta'lim muassasalari nofilologik ta'lim yo'nalishlari talabalarining kasbiy jihatdan tayyorligini rivojlantirish uchun zamonaviy usullarni izlashga o'rganishga tog'ri kelyapti. Bundan tashqari, nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarning turli darajadagi tayyorgarligi, mustaqil ishlar ulushining ortishi, xorijiy tilni o'qitishga

yondashuvning filologik ta'lim yo'nalishlaridan farqi kabi muammolar mavjud. Jumladan, ESP (*English for Specific Purposes*) modelini xorijiy til ta'limi jarayonida amalga oshirish turli mamlakatlarda ularning noyob geografik xususiyatlariga, atmosferasiga, sanoat va qishloq xo'jaligi landshaftlariga, muayyan ijtimoiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy kontekstlarga, shuningdek, ularning aholisining kundalik hayotdagi turmush tarziga moslashgan holda turlicha amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, ESP ning tarkibiy tuzilishiga turli sohalar va kasblarning majburiy va muhim talablari sezilarli darajada ta'sir qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 16-yanvardagi "Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan" Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida "Ta'lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga oid siyosatini amalga oshirish, ta'limning zamonaviy usullari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini ta'lim sohasiga keng joriy etish kabi dolzarb vazifalarni amalga oshirish yoshlarimiz, jamiyatimiz va mamlakatimiz kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega ekanligi" alohida ta'kidlab o'tildi¹. Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida, xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda, davlat ta'lim standartlariga (DTS) asoslangan holda amalga oshirilayotgan islohotlarda malakali kadrlar tayyorlash sifati va samaradorligini yanada orttirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, kadrlar malakasini oshirish, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishda hamkorlikni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"², 2022-yil 22-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifati oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"³, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"⁴, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi⁵, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgust 610-sonli "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 16-yanvardagi "Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan" Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi, 11-son. 16-yanvar, 2017-yil.1-bet.

² <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>;

³ <https://lex.uz/uz/docs/-6079561?ONDATE2=04.07.2023&action=compare>. <https://gov.uz/uz/news/view/20242>;

⁴ <https://lex.uz/ru/docs/-3765586>

⁵ <https://lex.uz/docs/-5426736?ONDATE2=12.05.2022&action=compare>

sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi"⁶ Qarorlari hamda mazkur faoliyat bilan bog'liq boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Talabalarining ingliz tiliga oid bilimlarini va kasbiy, kommunikativ, lingvistik ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi miqyosida olimlardan B.R.Samatova, M.X.Gulyamova, D.A.Tadjibaeva, F.Sh.Alimov, G.A.Asilova, X.A.Mamatkulov, B.G.Kulmatov, M.T.Irisqulov, X.A.Yulbarsovalar⁷ tomonidan ingliz tilini o'qitishda nofilologik yo'nalish talabalarining motivatsiyasi, kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv, chet tili kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish, ingliz tilida yozuv kompetentsiyasini shakllantirish, pedagoglarda xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirish, Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish, shuningdek, uning nazariy – metodik asoslari, integrativ yondashuv asosida ingliz tili kompetentsiyasini shakllantirishga oid muammolar o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlari olimlaridan N.A.Golubeva, A.P.Ivanov, O.Y.Kuznetsova, R.A.Safarov, G.S.Usmanova, A.A.Alxazishvili, V.V.Zavyalov, Y.R.Xusnutdinovalar⁸ kabi olimlar tomonidan ta'lim muassasalarida nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz til kompetentsiyasini rivojlantirish, talabalarining xorijiy tilda asosiy ko'nikmalari, kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishga yordam beruvchi innovatsion texnologiyalar, usullar, dasturlar, globallashuv sharoitida talabalarining til

⁶ <https://lex.uz/docs/-3304915>

⁷ Samatova B.R. Ingliz tilini o'qitishda nofilologik yo'nalish talabalarining motivatsiyasi (yurisprudentsiya yo'nalishi misolida). Dis-2021/37-48. 2020. 181 b; Gulyamova M.X. Ingliz tilini o'qitishda talabalar kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv. Dis-2019/49-85. 2019. 262 b; Tadjibaeva D.A. Kichik maktab yoshidagi bolalarning chet tili kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish. Avtoreferat. 2020. 56 b; Alimov F.Sh. Ingliz tilida yozuv kompetentsiyasini shakllantirish (nofilologik fakul'tetlar misolida). Dis-362/2018. 2018. 158 b; Asilova G.A. Bojxona va soliq yo'nalishlari talabalarining davlat tilida kasbiy muloqot yuritish kompetentsiyasini rivojlantirish (rus guruhlarida). Avtoreferat. 2017. 66 b; Mamatkulov X.A. Pedagoglarda xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning axborot-metodik ta'minotini takomillashtirish. Dis-37/2018. 2017. 190 b; Yulbarsova X.A. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Dis-2019/35-17. 2019. 211 b.

⁸ Голубева, Н. А. (2020). Развитие языковых компетенций студентов в условиях глобализации: методология и практика. Москва: Издательство «Логос»; Иванов, А. П., & Петрова, Е. В. (2018). Использование информационно-коммуникационных технологий в обучении языкам. Алматы: Издательство «Алматы Университети»; Кузнецова, О. Ю., & Смирнов, И. В. (2019). Межкультурная коммуникация в современном мире: теория и практика. Минск: Издательство «Беларуськія навука»; Сафаров, Р. А. (2017). Современные подходы к оценке языковых компетенций студентов. -Ташкент: Издательство «Фан»; Усманова, Г. С. (2016). Языковое образование и формирование профессиональной идентичности студентов. -Астана: Издательство «Нур-Жол»; Хуснутдинова, Е. Р. (2021). Инновационные подходы в обучении языкам: опыт и перспективы. -Бишкек: Издательство «Улуттук университети».

kompetensiyalarini oshirish, til o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, madaniyatlararo aloqa, til ta'limi va talabalarning kasbiy shaxsini shakllantirish, til o'qitishda innovatsion yondashuvlar, nolingvistik ixtisosliklarni o'qitish sharoitida tillararo muloqot muammolari o'rganilgan.

Xorijlik olimlardan M.A.Garcia, S.Choi, R.Jones, A.B.Martinez, S.M.Almarza, J.K.Smith kabi olimlar⁹ til o'rganishdagi metodologiyalar va innovatsion yondashuvlar, turli madaniy kontekstlarda nofilologik ta'limda xorijiy til kompetensiyalarini rivojlantirish muammolari va imkoniyatlari, nofilologik ta'limda til kompetensiyalarini rivojlantirish, loyihaga asoslangan ta'lim va kontentga asoslangan ta'lim, nolingvistik fanlar bo'yicha til o'rganish bilan bog'liq jihatlarini tadqiq etganlar.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ilmiy tadqiqotlarda talabalarning kasbiy sifatlarini oshirish, integrativ yondashuv asosida talabalarning til kompetensiyalari masalalarining ayrim jihatlarini ochib berilgan, biroq "Talabalarda xorijiy til kompetensiyasini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi (nofilologik ta'lim yo'nalishi misolida)" bilan bog'liq masalalar mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Oliy ta'lim muassasalari sharoitida nofilologik ta'lim yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, bizga ma'lumki, murakkab va ayni paytda mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi hamda kompetentli mutaxassislarni tayyorlash jarayonida o'rganiladigan chet (ingliz) tili ma'lum darajada tayanch vazifasini o'taydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida olib borildi.

Tadqiqotning maqsadi integrativ yondashuv asosida talabalarning ingliz tilida muloqot qilish kompetensiyalarini rivojlantirish strategiyalarini, kasbiy va individual sifatlarini oshirishning pedagogik va metodik asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining xorijiy til kompetensiyalarini rivojlantirishda integrativ yondashuvning ahamiyatini aniqlash va xorijiy tajribalarni tahlil qilish;

nofilologik ta'lim yo'nalishida xorijiy tilni o'qitish jarayonida talabalarning muloqot qilish ko'nikmalari, lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari va talabalarini belgilash;

oliy ta'lim amaliyotida nofilologik ta'lim yo'nalishida xorijiy tilni o'qitish jarayonida integrativ yondashuvning barqaror ishlashining optimallashtirilgan amaliy mexanizmlari asosida talabalarning til kompetensiyalarini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

⁹ Garcia, M. A., & Perez, L. (2020). Enhancing Language Skills in Non-Linguistic Fields: Innovative Approaches and Pedagogical Strategies; Choi, S., & Lee, H. (2019). Integrating Language Learning into Non-Philological Courses: A Case Study of South Korean Universities; Jones, R. L., & Brown, K. M. (2017). Language Across the Curriculum: Strategies for Developing Communicative Competence in Non-Linguistic Fields; Martinez, A. B., & Fernandez, C. D. (2021). Language Competence Development in STEM Education: A Comparative Analysis of Approaches in the United States and Spain; Smith, J. K. (2018). Language Competence Development in Non-Linguistic Disciplines: A Cross-Cultural Perspective.

nofilologik ta'lim yo'nalishida integrativ yondashuv asosida talabalarning xorijiy til kompetensiyasini, muloqotga kirishish ko'nikmalarini autentik materiallar vositasida rivojlantirish metodikalarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida nofilologik ta'lim yo'nalishida talabalarning integrativ yondashuv asosida ingliz tilida muloqot qilish kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni tanlanib, tajriba-sinov ishlariga Guliston davlat universiteti, Nukus davlat pedagogika instituti, Urganch davlat universitetining (maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yo'nalishi) jami 398 nafar respondent-talabarlari jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini nofilologik ta'lim yo'nalishida talabalarning til kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining mazmuni, vositalari, omillari, texnologiyasi, metodlari va strategiyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ushbu tadqiqotda uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keluvchi ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish, tahlil qilish, prognostik (umumlashtirish, baholash), deskriptiv, kuzatish, sotsiometrik (anketa, test); shuningdek, monitoring, pedagogik tashxis, tajriba-sinov; pedagogik hodisalarning tizimli tahlili, matematik-statistik tahlil; natijalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishda 4 "C" (*communication-muloqot, content-mazmun, culture-madaniyat, cognition-bilish*) tamoyili va CLIL (*CLIL-Content and Language Integrated Learning*) o'qitish metodologiyasini qo'llash, *receptive* (qabul qiluvchi) va *productive* (ishlab chiqaruvchi) ko'nikmalarini «integrativ yondashuv» orqali rivojlantirish yo'llari asoslangan;

nofilologik ta'lim yo'nalishlarida ESP (*English for specific purposes - maxsus maqsadlar uchun ingliz tili*) o'qitish jarayonida interfaol yondashuvlardan va innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali talabalarning kommunikativ, muloqot qilish ko'nikmalari va lingvistik kompetensiyalarini oshirishning optimallashtirilgan amaliy mexanizmlari o'rganilib chiqilgan va integrativ yondashuv asosida xorijiy til kompetensiyalarini rivojlantirish modeli takomillashtirilgan;

nofilologik ta'lim yo'nalishida talabalarning xorijiy til kompetensiyasini, muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi integrativ o'qitish metodikasi autentik materiallar vositasida kontekstlarga moslashtirilgan dinamik til o'rganish metodikalari integratsiyasi asosida takomillashtirilgan;

nofilologik ta'lim yo'nalishlarida talabalarning xorijiy til kompetensiyalarini ingliz tilini xorijiy til sifatida (*TEFL - Teaching English as a foreign language - ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitish*) o'qitish jarayonida integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari aniqlangan..

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalari nofilologik ta'lim yo'nalishlarida talabalarning til kompetensiyalarini ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitish jarayonida integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning texnologiyalari, mazmuni, shakllari, metodikalari va mexanizmlari takomillashtirilgan;

interfaol yondashuvlar vositasida talabalarning til kompetensiyalarini rivojlantirish modeli autentik materiallarni zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash orqali modifikatsiyalash asosida mukammallashtirilgan;

nofilologik ta'lim yo'nalishlarida talabalarning ingliz tilini o'qitish davomida asosiy "Tinglab tushunish" (Listening), "O'qish" (Reading), "Yozuv" (Writing), "Gapirish" (Speaking) ko'nikmalarini innovatsion usullar vositasida rivojlantirishning tashkiliy-metodik ta'minoti yaratilgan;

nofilologik ta'lim yo'nalishlarida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalarning ingliz tilida muloqot qilish kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlar majmui ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiq etilayotgan muammoga ilmiy-pedagogik yondashuv tadqiqot maqsadi, obyekti, predmeti, vazifalariga mos keluvchi metodlar majmuasidan foydalanilganligi, tajriba-sinovga jalb etilgan oliy ta'lim muassasalari soni talab darajasida ekanligi, tajriba-sinov natijalari statistik ma'lumotlarga tayanilganligi va matematik statistik jihatdan qayta ishlanganligi hamda mavzu yuzasidan chop etilgan ishlar mazmuniga ko'ra izohlanadi. Tadqiqot muammosiga tizimli va izchil yondashuv, tadqiqot ishi bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov natijalari va ularning pedagogik tadqiqotlarga qo'yiladigan zamonaviy talablarga mosligi, integrativ yondashuv asosida talabalarning til kompetensiyalarini rivojlantirish, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va reprezentativligi ta'minlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xorijiy tilni nofilologik ta'lim jarayonida o'qitish, integratsiyalashtirish va unga mos keladigan integrativ yondashuv keyingi yillarda fanda tobora keng tarqalganligi, integrativ yondashuv nuqtai nazaridan oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitish masalalarining mualliflik nuqtai nazaridan tahlil qilinganligi, talabalarning tilida muloqot qilish kompetentligini rivojlantirishning nazariy-pedagogik, didaktik imkoniyatlari, tamoyillari, bosqichlari, pedagogik shart-sharoitlarining aniqlanganligi, zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning kasbiy rivojlanish mexanizmlarining takomillashtirilganligi, metodologik yondashuvlar mohiyatining ochib berilganligi, oliy ta'lim muassasalarida integrativ yondashuv asosida ingliz til ta'limida sifat va samaradorlikni ta'minlash, til kompetensiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar oliy ta'lim muassasalarida xorijiy til fani mazmun-mohiyatini takomillashtirishga xizmat qilishi, tadqiqot natijasida aniqlangan tamoyillar, mezonlar, texnologiyalar, ishlab chiqilgan metodik ta'minot, pedagogik jarayon modeli takomillashtirilib, mashg'ulotlar to'plami ta'lim jarayoniga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalardan ta'lim muassasalarida integrativ yondashuv asosida nofilologik ta'lim yo'nalishlarida talabalarning til kompetensiyalarini takomillashtirish texnologiyalaridan pedagogik fanlar mazmunini takomillashtirishda, qayta tayyorlash, malaka oshirish kurslarida hamda kasbiy tayyorgarlikni oshirish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim tizimida nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining til kompetensiyalarini rivojlantirish, integrativ yondashuv asosida ingliz tilidan asosiy ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

nofilologik ta'lim yo'nalishlarida talabalarning til kompetensiyalarini ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishda integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning mazmuni, shakllari, metodikalari va mexanizmlarini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" o'quv qo'llanmasida foydalanilgan (Ozbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-son ruxsatnomasi). Natijada, nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining xorijiy til ko'nikmalari, kommunikativ, lingvistik kompetentligini oshirishga oid bilimlari rivojlantirilgan;

interfaol yondashuvlar vositasida talabalarning ingliz til kompetensiyalarini rivojlantirish modeli autentik materiallarni zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan Termiz davlat universitetida bajarilgan 617309-EPP-1-2020-1-EPPKA2-CBHE-JP raqamli "Triggering innovative approaches and entrepreneurial skills for students through creating conditions for graduate's employability in Central Asia - TRIGGER" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihada foydalanilgan (Termiz davlat universitetining 2024-yil 27-noyabrdagi 06/12-4285-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning ingliz til kompetensiyalarini rivojlantiruvchi interfaol metodikalari ingliz tili o'qitish jarayonida modifikatsiyalash asosida takomillashtirilgan va til kompetensiyalarini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish modeli optimallashtirilgan;

nofilologik ta'lim yo'nalishlarida talabalarning ingliz tilini o'qitish davomida asosiy "Tinglab tushunish" (Listening), "O'qish" (Reading), "Yozish" (Writing), "Gapirish" (Speaking) ko'nikmalarini innovatsion usullar vositasida rivojlantirishga oid ma'lumotlar Jizzax politexnika institutida bajarilgan OT-F1-049 raqamli "Talabalarga assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Jizzax politexnika institutining 2024-yil 20-sentyabrdagi 03-1881-1870-son ma'lumotnomasi). Natijada, nofilologik ta'lim yo'nalishida talabalarning til kompetensiyalarini rivojlantirishning tashkiliy-metodik ta'minoti yaratilgan, va rivojlantirish mexanizmlarining takomillashtirilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy anjumanlarida muhokama qilingan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, 153 sahifa matn, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti

aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma‘lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Nofilologik ta‘lim yo‘nalishlarida xorijiy til kompetensiyasini oshirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida xorijiy tilni o‘qitish jarayonida talabalarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy tadqiqi, O‘zbekistonda ta‘lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitishning hozirgi holati, nofilologik ta‘lim yo‘nalishlarida chet tilida muloqotga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilingan. Oliy ta‘lim muassasalari talabalariga ingliz tilini zamonaviy yondashuv va metodlardan foydalangan holda o‘qitish texnologiyasi hozirgi vaqtda ham to‘laqonli maxsus tadqiqotga tortilmaganligi muammo sifatida ilmiy nuqtai nazardan o‘zining to‘liq yechimini topmaganligi natijasida ingliz tilini o‘qitish (English as a Foreign Language) jarayonida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Ko‘pchilik holatlarda xorijiy til ta‘limi jarayonida nofilologik ta‘lim yo‘nalishlarida talabalarning mutaxassisligi bo‘yicha zamonaviy bilimlarga oid axborotlarni o‘rganishda zamonaviy yondashuvlardan to‘liq foydalanilmasligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. O‘quv fan dasturlariga kiritilgan mavzular to‘liq yoritilmaganligi, o‘quv qo‘llanmalariga sohaviy matnlar to‘liq kiritilmaganligi, talabaning chet tiliga qiziqishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligi ixtisoslikka oid sohaviy o‘quv materiallarni o‘qitish texnologiyasini ishlab chiqishga ehtiyojni paydo qiladi. Mantiqiy va keng fikrlash qobiliyatiga ega shaxsni tarbiyalashda chet tilini o‘rganish asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ESP (*English for specific purposes*) yondashuvining integratsiyasi bosqichma-bosqich amalga oshirilgan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda sezilarli yutuqlarga erishildi hamda ESP ta‘lim tizimiga kompleks yondashuv shakllantirildi. Keyinchalik, 2018-2019-yillarda ushbu tashabbusning bir qismi sifatida xalqaro standartlarga (CEFR) mos keladigan bir qator zamonaviy metodologiyalar, ta‘lim resurslari va dars sxemalari ishlab chiqildi. Ingliz tilini xorijiy til sifatida aniq maqsadlarda o‘rganish g‘oyasi, turli yondashuvlar va tadqiqotlar 1970-yillardan boshlangan.

Dastlab, Amerika Qo‘shma Shtatlari (AQSH) va Buyuk Britaniyadan tashqarida, xususan, Markaziy va Janubiy Amerika, Xitoy va Gonkongda ta‘limda maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP) modelining tarqalishi va ahamiyati bo‘yicha yuzlab tadqiqotlar o‘tkazilgan. Bundan asosiy maqsad ingliz tilini OTM talabalari yoki soha vakillarining qiziqish va ehtiyojlaridan, shuningdek, tilning ma‘lum bir sohasiga tegishli so‘zlarni qo‘llay olish mahoratidan kelib chiqib rivojlantirish edi. Ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitish (*TEFL- Teaching English as a foreign language*) o‘qituvchilardan xorijiy til ko‘nikmalarini samarali o‘rgatish uchun turli kompetensiyalarga ega bo‘lishni talab qiladi.



1-rasm. Ingliz tilini chet tili sifatida o'qitish bo'yicha kompetentsiya turlari

Bu kompetentsiyalar turli sohalarni, jumladan, lingvistik, pedagogik, madaniyatlararo va texnologik ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. TEFL uchun zarur bo'lgan kompetensiya turlarini tushunish o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari, o'quv dasturlarini ishlab chiqish va doimiy kasbiy rivojlanish tashabbuslari uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi (**1.-rasm**).

O'z navbatida, kommunikativ vazifa muloqotning funksional birligi sifatida nutq akti doirasida aks etadi¹⁰. G.M. Andreeva¹¹ tomonidan taqdim etilgan aloqa aspektlarining tuzilishi muloqotni ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida to'liqroq tavsiflaydi (**1.-jadvalga qarang**).

1-jadval.
Muloqotning funksiyalari va jihatlari

Muloqot		
Kommunikatsiya (Kommunikativ tomon)	O'zaro ta'sir (Interaktiv tomon)	Ijtimoiy Pertseptsiya (tushuncha, idrok) (Pertseptiv tomon)

Taklif etilayotgan jadvalda kommunikativ tomon axborot almashinuvidan, uni kommunikanlar o'rtasida uzatishdan iborat. Interaktiv tomon axborotdan tashqari harakatlar almashishdan iborat. Pertseptiv tomon – o'zaro tushunishni o'rnatish bilan muloqot qiluvchilarning bir-birini tushunishi, idrok etishi va bilishi. Muloqot aktida barcha tomonlar ishtirok etadi.

Dissertatsiyaning **“Talabalarning xorijiy til kompetensiyasini rivojlantirishda integrativ yondashuv”** deb nomlangan ikkinchi bobida talabalarning chet tili kompetensiyasini oshirishda integrativ yondashuvning ahamiyati, integrativ yondashuv asosida talabalarning xorijiy til kompetentligini rivojlantirish usullari, nofilologik ta'limda integrativ yondashuv asosida talabalarning chet tilida muloqotga kirishish ko'nikmalarini oshirish metodikasi (autentik materiallar vositasida) va ingliz tili ko'nikmalarini rivojlantirish

¹⁰ Зимняя И.А. Психология обучения иностранным языкам в школе/И.А.Зимняя. - Москва.:Просвещение, 1991. 222 с.

¹¹ Андреева Г.М. Социальная психология : учеб. для высш. учеб. заведений / Г.М. Андреева. - Москва.: Аспект Пресс, 2001. 384 с.

texnologiyalari tahlil qilingan. Integrativ yondashuv kommunikativ tilni o'qitish (CLT-Communicative Language teaching) tamoyillariga asoslangan bo'lib, ular mazmunli muloqot va o'quv jarayonida haqiqiy tildan foydalanishga ustuvor ahamiyat beradi. Ijtimoiy-madaniy nazariya va ta'limning konstruktivistik yondashuvlaridan kelib chiqqan holda, integrativ yondashuv tilni o'zlashtirishni ijtimoiy, madaniy va kognitiv omillar ta'sirida dinamik va interaktiv jarayon sifatida ko'radi. U til ko'nikmalari va tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligini tan oladi hamda til o'rgatish va o'rganishga yaxlit yondashuv tarafdoridir.

Integrativ yondashuv til o'rganish jarayonini haqiqiy hayotdagi muloqot bilan uyg'unlashtiradi, bu esa tilni o'rgatishni yanada dolzarb va samarali qiladi¹². Binobarin, til ko'nikmalarining integratsiyalashuvi real dunyo kontekstlarida samarali muloqot qilish uchun zarur bo'lib, o'qituvchilarga qo'yiladigan talablarga qaramasdan, ingliz tilini o'rgatish uchun katta foyda keltiradi¹³. Barcha to'rtta til ko'nikmalarini birlashtirgan holda o'qitish tilning real kontekstda qo'llanilishiga e'tiborni qaratadi va talabalarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Nunan fikricha, til o'rgatish va o'rganish jarayonlarida kundalik muloqot va topshiriqlar natijalarida ko'nikmalarining integratsiyalashuvi muhimligini ta'kidlaydi¹⁴. Til ko'nikmalarini o'rgatishda integrativ yondashuv ko'plab afzalliklarni beradi, jumladan, real muhit, motivatsiya va til o'rganishga jalb qilish. Tinglash, gapirish, o'qish va yozish faoliyatlarini birlashtirib, o'qituvchilar tilni yaxlit bilish va talabalar o'rtasida samarali muloqotni rivojlantirishga yordam beradigan dinamik ta'lim muhitini yaratishi mumkin.

1970-yillarning oxirigacha til ko'nikmalari, odatda, yakka holda o'rgatilib kelinar, bu tilni o'rgatishning an'anaviy usullaridan hisoblangan Grammatik tarjima qilish metodi GTM-Grammar Translation Method, Structuralism Approach, the Direct Method, the Audio-Lingual Method, TPR-Total Physical Response va the Natural Approach metodlari orqali amalga oshirilardi. Masalan, GTM ustunlik qilgan davrda til o'rganish kundalik hayotda muloqotga emas, balki ingliz tilining grammatik qoidalarini tahlil qilishga va adabiy matnlarni tarjima qilishga qaratilgan edi. Xuddi shunday, Strukturalizm yondashuvi talabalarga til elementlari va qoidalarini o'zlashtirishga yordam berishni maqsad qilgan¹⁵, ammo ular muloqot qilish uchun tildan foydalanishda qiyinchiliklar paydo bo'lgan.

Tadqiqot ishimizni samarali tashkil qilish maqsadida tajriba-sinov jarayoniga ko'ra talabalarning xorijiy til ta'limida til kompetentligini rivojlantirishni amalga oshirish shartlari, mazmun-mohiyatini organish va takomillashtirishga doir imkoniyatlari tadqiq etildi. Integrativ yondashuv vositasida talabalarning xorijiy til ta'limida kompetentligini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi.

Mazkur model maqsadli va mazmunli blok asosida shakllantirildi. Ushbu model vositasida talabalarning xorijiy til ta'limida til kompetentligini rivojlantiruvchi bilimlar organildi. Tadqiqot ishimizning samarali organilishi

¹² Almarza, S. M. A. (2000). An Approach to Integration of Skills in English Teaching; Didactica (Lengua y Literatura): pp.21-44.

¹³ Jing, W. (2006). Integrating Skills for Teaching EFL -Activity Design for the Communicative Classroom, Sino-US English Teaching. V. 3, No.12 (Serial No.36).

¹⁴ Nunan, D. (2005). Important tasks of English education: Asian EFL Journal, 7(3), 5-8.

¹⁵ Martinez, E., & Rodriguez, L. (2019). "The Role of Social Media in Developing Linguistic Competence: Perspectives from Non-Philological Education." Journal of Language and Social Media, 4(1), 56-68.

uchun tadqiqot bosqichlari (diagnostik, dasturiy-ta'minot, ta'lim-tarbiyaviy, yakuniy-umumlashtiruvchi), darajalari (past, orta, yuqori) va uning natijalari aniqlandi. Tadqiqot ishimizning yakuniy-umumlashtiruvchi bosqichida talabalarning til kompetentligini rivojlanish dinamikasi baholandi va natijalari umumlashtirildi. Istiqboldagi tarbiyaviy ishlarning yo'nalishlari aniqlandi.

Ingliz tilining xorijiy til sifatidagi tushunchasi (EFL-English as a foreign language) G'arb mamlakatlaridagi ko'plab so'zlashuvchilarga tanish bo'lib, ko'pincha etnik va mintaqaviy o'ziga xoslik bilan bog'liq. Zamonaviy til ta'limida til ko'nikmalari muloqot jarayoniga asoslangan holda qabul qiluvchi (**receptive**) va ishlab chiqaruvchi (**productive**) kompetensiyalarga bo'linadi. Xuddi shunday, Klimova¹⁶ ushbu ko'nikmalarni nutqning og'zaki va yozma shakllariga ajratdi. Jing¹⁷ ta'kidlaganidek, dastlabki amaliy tilshunoslar talabalarning til kompetentligini oshirishni maqsad qilgan holda to'rtta til ko'nikmalarini alohida o'rgatish tarafdori bo'lgan. Oksford¹⁸ bu yondashuvni "*tilga asoslangan yondashuv*" deb ataydi. Jing fikriga ko'ra, til o'rganishda asosiy e'tibor an'anaviy ravishda haqiqiy muloqotga emas, balki tilning o'ziga qaratilgan. An'anaviy ESL/EFL kurslari til ko'nikmalarini alohida o'rgatishga katta urg'u berib, minimal integratsiya bilan tinglash, gapirish, o'qish va yozishni o'rgatishning ketma-ket yondashuvini taklif qiladi.

Ushbu model talabalarning til kompetensiyalarini har tomonlama rivojlantiruvchi muhitni yaratishga qaratilgan. Vigotskiy¹⁹ ilmiy tushunchalarni o'zlashtirish xuddi chet tilini o'rganish va ona tilini o'zlashtirish alohida ekanligi kabi bir-biridan farq qilishini ta'kidlaydi (**2-jadvalga qarang**).

2-jadval

Tilni o'zlashtirish va til o'rganish o'rtasidagi farq


Tilni o'zlashtirish	Tilni o'rganish
Ongsiz	Ongli
Ona tili	chet tili
Konkretidan mavhumga	Mavhumdan konkretga
Fikrni umumlashtirish	Obyektni umumlashtirish
Implicit (yashirin)	Explicit (aniq)
Strukturaviy bo'lmagan / tizimli bo'lmagan	Strukturaviy / tizimli
Norasmiy kontekst	Rasmiy kontekst
G'oyalar yoki bilimlarga asoslangan	Grammatik qoidalar asoslangan
Xulq-atvorga qarab	Qobiliyatga qarab
Kompleks o'rganish	Oddiydan murakkabga qarab o'rganish

¹⁶ Klimova, B. F. (2014). Detecting the development of language skills in current English language teaching in the Czech Republic. *Procedia-social and Behavioural Sciences*, 158, 85-92. Retrieved from <http://ac.els-cdn.com/S1877042814061308/S2.O-S1877042814061308-main.pdf?-tid=4be823da-1953-11e7-af68>.

¹⁷ Jing, W. (2006). Integrating Skills for Teaching EFL -Activity Design for the Communicative Classroom, *Sino-US English Teaching*. V. 3, No.12 (Serial No.36).

¹⁸ Oxford, R. (2001). Integrated skills in the ESL/EFL classroom. ERIC digest ERIC Clearinghouse on Languages and Linguistics.

¹⁹ Vygotsky, L. S. (1986). *Thought and language*. Cambridge, MA: MIT Press.



2-rasm. Integrativ yondashuv vositasida talabalarning xorijiy til ta'limida til kompetentsiyasini rivojlantirish modeli

Nofilologik ta'lim sohasida chet tilida muloqot ko'nikmalarini egallash muhim ahamiyatga ega bo'lib, talabalarning turli kasbiy kontekstlarda samarali ishtirok etishiga yordam beradi. Til o'qitishda autentik materiallardan foydalanish talabalarning kommunikativ ko'nikmasini oshirishning asosiy metodologiyasi sifatida paydo bo'ldi. Talabalarga integratsiyalashgan mazmun va tillarni o'rgatish asosida xorijiy kasbiy muloqotni o'rgatishning eng dolzarb usullarini ko'rib chiqamiz (*3-jadvalga qarang*).

3-jadval

Integrativ yondashuv asosida talabalarga xorijiy tildagi muloqotga kirish ko'nikmalarini o'qitish metodikasi		
Metodlar guruhi	Maqsad	Qo'llash sohasi
Interfaol (interactive)	O'qituvchi va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan o'zaro munosabatlar jarayonida talabalarning maksimal ishtiroki	O'quv jarayonini tashkil etish
Kommunikativ	Chet tili kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va o'rganilayotgan til mamlakati madaniyatini o'zlashtirish	O'quv mazmunini tanlash, o'qitishning vaziyatli va mavzuli mazmunini tashkil etish, o'quv jarayonini tashkil etish
Axborot va reproduktiv	Berilgan ko'rsatmalarga muvofiq mashqlarni bajarish	O'quv jarayonini tashkil etish, o'quv mashqlarini ishlab chiqish
Samarali	Izlanish va tadqiqot faoliyatini tashkil etish, muammoli vaziyatlardan foydalanish	O'quv jarayonini tashkil etish, o'quv mashqlarini ishlab chiqish
Tandem metodi	Turli til madaniyati vakillari bilan o'zaro munosabat sharoitida o'quv materialini o'zlashtirish	O'quv jarayonini tashkil etish
Kasbiy ta'lim metodlari	Ta'lim profiliga muvofiq dunyoqarashni kengaytirish va professional ko'nikmalarni rivojlantirish	Trening mazmunini tanlash, o'quv jarayonini tashkil etish, o'quv mashqlarini ishlab chiqish
Nazorat metodlari	Kasbiy bilimlar sohasida ko'nikma va malakalarning rivojlanishini nazorat qilish. Reflektsiya	Ta'lim natijalarini baholash

Tilni uning tarkibiy qismlariga ajratish zarur bo'lishi mumkin bo'lsa-da, tildan samarali foydalanish uchun ko'nikmalar va komponentlarni birlashtirish juda muhimdir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Nofilologik ta'lim yo'nalishlarida talabalarning xorijiy til kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov**

ishlari va natijalari” deb nomlangan bo‘lib, nofilologik ta’lim jarayonida talabalarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari, talabalarning til kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari natijalari, nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalarning xorijiy til kompetensiyasini rivojlantirish uchun amaliy topshiriqlar tizimi tahlil qilingan. Talabalarning til kompetentligini rivojlantirish uchun maxsus ishlab chiqilgan ko‘plab onlayn texnologiyalar, saytlar va platformalar mavjud. Mana ulardan ba’zilari quyidagilardan iborat:

4-jadval

Onlayn platformalar, texnologiyalar va saytlar

Duolingo: [https://ru.duolingo.com/]	Bu til o‘rganish uchun eng mashhur mobil ilovalar va veb-platformalardan biridir. Duolingo o‘yin mexanikasiga asoslangan keng ko‘lamli tillar va interaktiv darslarni taqdim etadi.
Rosetta Stone: [https://www.rosettastone.com/]	Ushbu platforma audio, video va matnli materiallar orqali til o‘rganishga intuitiv va immersiv yondashuvni taqdim etadi.
Babbel: [https://www.babbel.com/]	Babbel amaliy og‘zaki til ko‘nikmalariga e’tibor qaratib, professional tilshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan kurs tizimini taklif qiladi.
Memrise: [https://www.memrise.com/ru/]	Bu platforma turli tillardagi so‘z va iboralarni yodlab olishga yordam berish uchun tasvir va audio bilan flesh-kartalarni o‘rganishni taqdim etadi.
Busuu: [https://www.busuu.com/ru/]	Busuu o‘zida talabalar o‘rganilayotgan tilda so‘zlashuvchilar bilan muloqot qilishlari mumkin bo‘lgan jamoaga asoslangan ta’lim elementlarini va interfaol darslarni birlashtiradi.
Lang-8: [https://play.google.com/store/apps/developer?id=Lang-8,+inc&hl=ru&gl=US]	Ushbu onlayn platforma talabalarga o‘zlari tanlagan tilda matn yozish va chet tilida so‘zlashuvchilardan fikr-mulohaza olish imkonini beradi.
LingQ: [https://www.lingq.com/ru/]	LingQ yangi so‘z va iboralarni o‘rganish qobiliyatiga ega turli tillardagi matnlarning katta kutubxonasidan iborat.
Quizlet: [https://quizlet.com/]	Quizlet turli tillardagi so‘zlar, iboralar va tushunchalarni o‘rganish va ko‘rib chiqish uchun kartalar to‘plamini yaratish imkonini beradi.
BBC Learning English: [https://www.bbc.co.uk/learningenglish/]	Bu sayt ingliz tilini o‘rganish uchun bepul audio, video va matn darslarini taqdim etadi.
Coursera va edX: [https://www.coursera.org/courses]	Bu platformalar sertifikat olish imkoniyati bilan turli mavzular, jumladan, til o‘rganish bo‘yicha onlayn kurslarni o‘z ichiga oladi.

Innovatsion texnologiyalar shaxsiylashtirilgan ta'lim, haqiqiy til amaliyoti, madaniy idrok etish va fikr-mulohaza yuritish imkoniyatlarini yaratadi, natijada talabalarga chet tilini bilish va tilni mustaqil foydalana olish darajasini oshirishga yordam beradi. Og'zaki muloqot ko'nikmalarini oshirishda nutqiy ko'nikmalar birinchi o'rinni egallaydi. Butun o'qitish jarayoni talabalarning og'zaki nutqida kommunikativ ko'nikmalarini, fikrni til orqali ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

